


«Утверждаю»

Административный директор
ООО «УМС»



Камалидинов М.Р.



«01» июня 2026г.

ТЕХНИЧЕСКОЕ ЗАДАНИЕ

на выполнение аварийно-восстановительных работ и текущему ремонту объектов размещения телекоммуникационной инфраструктуры ООО «УМС» в Хорезмской области ЦО г. Ургенч

город Ташкент
2026

Настоящим техническим заданием определяются требования, объем и сроки выполнения аварийно-восстановительных работ и текущему ремонту объектов (далее Объект) размещения телекоммуникационной инфраструктуры **ООО «UMS» в Хорезмской области ЦО в г. Ургенч.**

Аварийно-восстановительные работы и работы по текущему ремонту (далее Работы) на объектах размещения телекоммуникационной инфраструктуры могут распространяться на:

- собственные здания и сооружения;
- арендуемые здания, сооружения и их части.

Заказ на производство аварийно-восстановительных работ и по текущему ремонту может быть оформлен на ремонт кровли, ремонт аппаратного помещения, так и на весь комплекс необходимых работ на объекте.

В исключительных случаях, по обоюдному согласию Заказчика и Подрядчика, Заказы могут быть выпущены для объектов Заказчика, расположенных в других регионах Республики Узбекистан.

На каждый объект аварийно-восстановительных работ и текущего ремонта разрабатывается сметная документация в соответствии с нормативными требованиями ШНК, КМК, СНиП и подтверждается экспертным заключением.

При выполнении ремонтно-восстановительных работ и текущего ремонта Подрядчик обязан строго следовать всем правилам и расчетам строительства, ремонта, **ГОСТ, СНиП, СанПиН, ШНК, Техническое задание и Приложения к нему, а также** иной документации, предоставляемой Заказчиком.

Итоговая стоимость работ будет определяться по факту их выполнения согласно сметной документации.

Заказчик оставляет за собой право привлекать независимых экспертов для определения фактического объема выполненных работ.

1. Предварительный объем работ

Предварительный объём Работ по Хорезмской области ЦО г. Ургенч составляет 37 объектов. Количество объектов является предварительным и может быть изменено Заказчиком в сторону увеличения либо уменьшения.

2. Порядок расчета стоимости объектов

Для начала работ по объекту в качестве стартовой стоимости Заказчиком рассматриваются следующие варианты:

- расчётная сметная стоимость ремонта каждого объекта, подтверждённая экспертным заключением.
- типовая расчётная сметная стоимость комплекса ремонтно-восстановительных работ и текущего ремонта объекта, прошедшая экспертизу в течении отчётного квартала.

Работа производится без получения предоплаты.

Окончательный расчет за выполненные работы производится по факту их

выполнения на основании сметного расчета, подготовленного с применением основных показателей по прочим затратам, стоимости человека часа, транспортным расходам, согласованным на этапе проведения закупки.

Для определения и согласования условий оплаты Участник, при подаче коммерческих предложений, должен заполнить Таблицы №2 итоговой расчетной стоимости ценообразования (стоимость человека часа с учётом соц. страха, транспортные расходы, прочие затраты подрядчика %), заверить её печатью и подписью уполномоченного лица:

№ПП	Наименование показателей	Параметры	Примечание
1	Прочие затраты подрядчика %		При закрытии работ уровень (величину) прочих затрат принимать согласно предоставленного участником процедуры в своем КП, но не выше статистических показателей адресной регистрации юридического лица (подрядчика) на основе данных Госкомстата №01/3-15-07-3/2-74 от 28.05.2015г. В случае превышения статистических показателей, контрагент должен предоставить заключение экспертной организации за предыдущий год
2	Стоимость человека часа с учётом соц. страха.		Подрядчик рассчитывает уровень (величину) заработной платы согласно пункта 6.7 ШНК4.01.16-04. Затраты на заработную плату рабочих-строителей определяются с применением стоимости чел/часа исходя из уровня среднемесячной заработной платы за предыдущие 12 месяцев по подрядной организации.
3	Транспортные расходы		Транспортные расходы указать в процентах от стоимости строительных материалов на основании письма Госархитектстроя № 352/11-08 от 31.01.2011г.

В случае отсутствия у Подрядчика документов, подтверждающих указанные в форме затраты, к его расчету будут применены среднестатистические показатели.

По итогам проведенной закупочной процедуры с победителями будет подписан рамочный договор сроком до полного исполнения договорных обязательств.

3. Порядок оформления документов и закрытие работ

Перед началом работ, на стадии подписания Договора (Заказа), необходимо согласовать с Заказчиком список документов, требуемых для выполнения работ конкретного объекта.

В процессе выполнения работ и по их окончанию Подрядчиком должна быть оформлена и предоставлена Заказчику вся необходимая исполнительная документация.

Сдача Заказчику выполненных работ возможна только после предоставления полного пакета документов по согласованному списку.

Перечень основных документов и их образцы приведены в Приложении №3 к

Договору.

При подписании Заказов Подрядчик должен определить сроки выполнения работ и согласовать их с Заказчиком. Подрядчик обязан учитывать установленный режим эксплуатации объектов. Проведение работ разрешается в рабочие дни с 09:00 до 18:00. На отдельных объектах выполнение ремонтно-строительных работ допускается только в согласованные Заказчиком временные интервалы. Выполнение работ вне установленного времени без письменного согласования Заказчика запрещается. **Перед началом выполнения работ Подрядчик обязан пройти инструктаж по технике безопасности и охране труда на объекте. Факт прохождения инструктажа должен быть подтвержден соответствующим документом (журналом инструктажа, актом допуска), подписанным уполномоченными представителями сторон.**

Любые дополнительные работы, возникающие на объекте и неучтенные в заказе, а также любые отклонения от заказа должны быть предварительно письменно согласованы с Заказчиком и оформлены соответствующим дефектным актом Ф-17а (приложение к договору).

Расходы за выполнение не согласованных работ Заказчиком не возмещаются и не оплачиваются.

При предъявлении объекта к промежуточной приемке и осмотру скрытых работ оповещение Заказчика и его присутствие на объекте обязательны. О готовности к осмотру Подрядчик должен оповестить Заказчика заблаговременно, не позднее 3-х рабочих дней до дня приемки.

Оплата за выполненные работы производится по факту подписания акта сдачи-приемки выполненных работ в течении 10 банковских дней с даты его подписания и счет-фактуры к нему. Предварительная оплата (аванс) не предусмотрен.

4. Требования к Подрядчику

4.1. К участию допускаются организации, имеющие опыт выполнения ремонтно-строительных работ.

4.2. Наличие участника в списке оценки рейтинга подрядных организаций при Минстрое РУз

4.3. Подрядчик в случае победы в ОНП должен представить коммерческое предложение в виде локально-ресурсной сметы, которая должна соответствовать требованиям ШНК.

5. Требования, по сроку гарантий качества на результаты работ (услуг):

5.1. Гарантии качества проделанной работы составляет не менее 1 года, гарантия на линолеум должна быть не менее 3х лет. Гарантия на механизм замка должна быть не менее 3х лет. Гарантия на кровельные материалы и работы из изол/фольгоизола – не менее 5ти лет.

Разработано:

Руководитель ГТН ОЭЗСиН




подпись

Е.Р. Абдиганиев

Согласовано:

Начальник ОЭЗСиН



подпись

Р.Б. Сидиков



“Tasdiqlayman”

“UMS” MChJ ma'muriy
direktori

M.R. Kamalidinov

01" *Ums* 2026-yil

**“UMS” MChJ Xorazm viloyati Urgench shahridagi XKM telekommunikatsiya
infratuzilmasini joylashtirish obyektlarini avariya-tiklash va joriy ta'mirlash ishlarini
bajarish bo'yicha**

TEXNIK TOPSHIRIQ

**Toshkent shahri
2026-yil**

Ushbu texnik topshiriq "UMS" MChJ Xorazm viloyati Urgench shahridagi XKM telekommunikatsiya infratuzilmasini joylashtirish obyektlarini (keyingi o'rinlarda Obyekt deb yuritiladi) avariya-tiklash va joriy ta'mirlash bo'yicha ishlarning talablari, hajmi va muddatlarini belgilaydi.

Telekommunikatsiya infratuzilmasini joylashtirish obyektlarini avariya-tiklash va joriy ta'mirlash ishlari quyidagilarga taalluqli bo'lishi mumkin:

- o'z mulkidagi binolar va inshootlar;
- ijaraga olingan binolar, inshootlar va ularning qismlari.

Avariya-tiklash va joriy ta'mirlash ishlarini bajarish uchun buyurtma tom yopmasini ta'mirlash, apparat xonasini ta'mirlash, shuningdek obyektidagi barcha zarur ishlar majmuasiga rasmiylashtirilishi mumkin.

Alohida hollarda, Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro kelishuvi asosida, O'zbekiston Respublikasining boshqa hududlarida joylashgan Buyurtmachi obyektlari uchun ham Buyurtmalar berilishi mumkin.

Har bir avariya-tiklash va joriy ta'mirlash obyekti uchun ShNQ, QMQ, SanQvaN me'yoriy talablariga muvofiq smeta hujjatlari ishlab chiqiladi va ekspertiza xulosasi bilan tasdiqlanadi.

Ta'mirlash-tiklash ishlari va joriy ta'mirlash ishlarini bajarishda Pudratchi qurilish, ta'mirlash, **FOCT, QMQ, SanQvaN, ShNQ, Texnik topshiriq va unga Ilovalar, shuningdek** Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan boshqa hujjatlardagi barcha qoidalar va hisob-kitoblarga qat'iy rioya qilishi shart.

Ishlarning yakuniy qiymati smeta hujjatlariga muvofiq ularning bajarilishi asosida aniqlanadi.

Buyurtmachi bajarilgan ishlarning haqiqiy hajmini aniqlash uchun mustaqil ekspertlarni jalb qilish huquqini o'zida saqlab qoladi.

1. Dastlabki ish hajmi

Xorazm viloyati Urgench shahridagi XKM dagi dastlabki ish hajmi **37** obyektни tashkil etadi.

Ob'ektlar soni dastlabki hisoblanadi va Buyurtmachi tomonidan yuqoriga yoki pastga o'zgartirilishi mumkin.

2. Obyektlar qiymatini hisoblash tartibi

Obyekt bo'yicha ishlarni boshlang'ich qiymat sifatida boshlash uchun Buyurtmachi quyidagi variantlarni ko'rib chiqadi:

- ekspert xulosasi bilan tasdiqlangan har bir obyektни ta'mirlashning hisoblangan smeta qiymati.

- hisobot choragi davomida ekspertizadan o'tgan obyektning ta'mirlash-tiklash ishlari kompleksining namunaviy hisoblangan smeta qiymati

Ish oldindan to'lovsiz bajariladi.

Bajarilgan ishlar uchun yakuniy hisob-kitob ularning bajarilishi asosida amalga oshiriladi. Bu xarid jarayoni bosqichida kelishilgan boshqa xarajatlar, inson-soati qiymati, transport xarajatlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlarni qo'llagan holda tayyorlangan smeta hisob-kitobiga asoslanadi.

To'lov shartlarini aniqlash va kelishish uchun Ishtirokchi tijorat takliflarini taqdim etishda narxni shakllantirishning yakuniy hisob-kitob qiymatining 2-jadvallarini to'ldirishi (ijtimoiy sug'urtani hisobga olgan holda inson-soati qiymati, transport xarajatlari, Pudratchining boshqa xarajatlari foizi) va uni vakolatli shaxsning muhri va imzosi bilan tasdiqlashi lozim:

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	Parametrlar	Izoh
1	Pudratchining boshqa xarajatlari %		Ishlar yopilganda boshqa xarajatlar darajasi (miqdori) ishtirokchi tomonidan o'z tijorat taklifidada taqdim etilgan ma'lumotlarga muvofiq, biroq Davlat statistika qo'mitasining 2015-yil 28-maydagi 01/3-15-07-3/2-74-son ma'lumotlari asosida yuridik shaxsni (pudratchini) manzilli ro'yxatdan o'tkazishning statistik ko'rsatkichlaridan oshmaydigan miqdorda qabul qilinadi. Statistik ko'rsatkichlar oshgan taqdirda, kontragent ekspert tashkilotining o'tgan yilgi xulosasini taqdim etishi shart.
2	Ijtimoiy sug'urtani hisobga olgan holda bir kishi-soatning qiymati.		Pudratchi ish haqi darajasini (miqdorini) ShNQ 4.01.16-04 ning 6.7-bandiga muvofiq hisoblaydi. Quruvchi ishchilarning ish haqi xarajatlari pudratchi tashkilot bo'yicha oldingi 12 oydagi o'rtacha oylik ish haqi darajasidan kelib chiqib, kishi-soat qiymatini qo'llagan holda aniqlanadi.
3	Transport xarajatlari		Transport xarajatlari Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasining 2011-yil 31-yanvardagi 352/11-08-sonli xatiga asosan qurilish materiallari qiymatiga nisbatan foizlarda ko'rsatilsin.

Pudratchida shaklda ko'rsatilgan xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lmagan taqdirda, uning hisob-kitobiga o'rtacha statistik ko'rsatkichlar qo'llaniladi.

O'tkazilgan xarid qilish tartib-taomillari yakunlari bo'yicha g'oliblar bilan shartnoma majburiyatlari to'liq bajarilgunga qadar bo'lgan muddatga ramkali shartnoma imzolanadi.

3. Hujjatlarni rasmiylashtirish va ishlarni yopish tartibi

Ishlarni boshlashdan oldin, Shartnoma (Buyurtma)ni imzolash bosqichida, muayyan obyektни bajarish uchun zarur bo'lgan hujjatlar ro'yxatini Buyurtmachi bilan kelishib olish lozim.

Ishlarni bajarish jarayonida va ular yakunlangandan so'ng, Pudratchi barcha zarur ijro hujjatlarini rasmiylashtirishi va Buyurtmachiga taqdim etishi shart.

Bajarilgan ishlarni Buyurtmachiga topshirish faqat kelishilgan ro'yxat bo'yicha to'liq hujjatlar to'plami taqdim etilgandan keyingina amalga oshirilishi mumkin.

Asosiy hujjatlar ro'yxati va ularning namunalari Shartnomaning 3-ilovasida keltirilgan

Buyurtmalarni imzolashda Pudratchi ishlarni bajarish muddatlarini belgilashi va ularni Buyurtmachi bilan kelishib olishi zarur. Pudratchi obyektlarning belgilangan foydalanish tartibini inobatga olishi shart. Ayrim obyektlarda ta'mirlash-qurilish ishlarini bajarish faqat Buyurtmachi bilan kelishilgan vaqt oralig'ida amalga oshiriladi. Ishlarni bajarishga ish kunlari soat 09:00 dan 18:00 gacha ruxsat etiladi. Belgilangan vaqtdan tashqari ishlarni Buyurtmachining yozma rozilgisiz bajarish taqiqlanadi. ***Ishlarni boshlashdan oldin Pudratchi obyekt hududida texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasi bo'yicha yo'riqnomadan o'tishi shart. Yo'riqnomadan o'tilganligi tomonlarning vakolatli vakillari tomonidan imzolangan tegishli hujjat (yo'riqnoma jurnali, dalolatnoma yoki boshqa tasdiqlovchi hujjat) bilan tasdiqlanishi lozim.***

Obyektda yuzaga keladigan va buyurtmada hisobga olinmagan har qanday qo'shimcha ishlar, shuningdek, buyurtmadan har qanday chetga chiqishlar Buyurtmachi bilan oldindan yozma

ravishda kelishilishi va tegishli F-17a nuqson dalolatnomasi bilan rasmiylashtirilishi lozim.

Kelishilmagan ishlarni bajarilganlik uchun xarajatlar Buyurtmachi tomonidan qoplanmaydi va to'lanmaydi.

Obyektni oraliq qabul qilish va yashirin ishlarni ko'zdan kechirish uchun taqdim etishda Buyurtmachini xabardor qilish va uning obyektida hozir bo'lishi majburiydir. Ko'zdan kechirishga tayyorlik haqida Pudratchi Buyurtmachini oldindan, qabul qilish kunidan kamida 3 ish kuni oldin xabardor qilishi shart.

Bajarilgan ishlar uchun to'lov bajarilgan ishlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasi imzolanganidan so'ng, u imzolangan sanadan boshlab 10 bank kuni ichida va unga hisobvaraqa-faktura bo'yicha amalga oshiriladi. Oldindan to'lov talab qilinmaydi.

4. Pudratchiga qo'yiladigan talablar

4.1. Ishtirok etish uchun ta'mirlash-qurilish ishlarini bajarish tajribasiga ega bo'lgan tashkilotlarga ruxsat beriladi.

4.2. Ishtirokchining O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi huzuridagi pudrat tashkilotlari reytingini baholash ro'yxatida mavjud bo'lishi

4.3. Pudratchi EYT tanlab olishda g'olib bo'lgan taqdirda, ShNQ talablariga muvofiq bo'lgan lokal-resurs smetasi ko'rinishidagi tijorat taklifini taqdim etishi lozim.

5. Ishlar (xizmatlar) natijalarining sifat kafolati muddatiga qo'yiladigan talablar:

Bajarilgan ishning sifat kafolati kamida 1 yil, linoleumning kafolat muddati esa kamida 3 yil bo'lishi lozim. Qulf mexanizmining kafolat muddati kamida 3 yil bo'lishi kerak. Tom yopish materiallari va izol/folgoizol bilan bog'liq ishlarga kamida 5 yillik kafolat berilishi shart.

Ishlab chiqildi:

BFQ va KMB TNG rahbari

imzo

Ye.R. Abdiganiyev
(famiyasi, ismi, otasining ismi)

Kelishildi:

BFQ va KMB boshlig'i

imzo

R.B. Sidikov
(famiyasi, ismi, otasining ismi)